



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

ASQAROV Xusanboy Esonovich

*Farg'ona davlat universiteti
erkin tadqiqotchisi*

IJTIMOYIY TENGSIZLIKNI BARTARAF ETISHDA IJTIMOYIY ADOLATNING O'RNI

Ijtimoiy tenglik yoki tengsizlik asosida turli qatlamlarning ijtimoiy tabaqalanish jarayoni sodir bo'ladigan "ijtimoiy makon" tushunchasi paydo bo'ladi. Zamonaviy ijtimoiy yondashuvlar ta'sirida ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish jarayonlari ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish zaruratini vujudga keltiradi. Chunki har qanday yangilanish jarayonlari avvalgi o'rnatilgan konseptual asoslarni o'rniga ilmiy asoslangan yangicha ijtimoiy modellar va konseptual kategoriyalarni tuzishga majbur etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsadi – aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya va bandlikni ta'minlash, daromadlar barqaror o'sishiga erishish, jamiyatning madaniy darajasi, bag'rikenglik va mribonlik fazilatlarini yanada mustahkamlashdan iborat" [1].

Dunyo tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ijtimoiy tengsizlik muammosini yengishdagi amerikalik faylasuf olim D.Rolsning "Adolat nazariyasi"da o'z ifodasini topgan. U "adolat" va "burch" kabi oqilona kategoriyalar orqali jamiyatda manfaatlar uyg'unligini isbotlashga harakat qilgan. Shundan kelib chiqib, u bu asosiy tushunchalarni huquqiy emas, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy asosli va maqbul bo'lishi kerak bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumning axloqiy-huquqiy mezonlari deb hisoblaydi.

D.Rolsning fikricha, "Tengsizlikning ikkita tushunchasi mavjud. Birinchi konsepsiya ijtimoiy hamkorlikning samaradorligi va adolatligiga qarab, jamiyatda foydali mavqega ega bo'lganlarga ustunlik beradigan jamoat tovarlarini taqsimlash bilan bog'liq tenglikni ajratib turadi. Ikkinchisi, bu tenglikni ularning ijtimoiy mavqedan qat'iy nazar, barcha choralarga nisbatan tekshiradi, ya'ni ularga teng imkoniyatlar beriladi" [2, B.442].

Bizningcha, yuqoridagi fikrlardan quyidagicha xulosalar chiqariladi: *birinchidan*, jamiyatdagi farqlarni tan olish liberal tenglik tizimidagi ijtimoiy tengsizlikning asosini oldindan belgilaydi. *Ikkinchidan*, zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy tamoyillari (huquq, erkinliklar, iqtisodiy ne'matlarni taqsimlovchi tartibga solish) ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda demokratiyaning minimal asosini ta'minlaydi.

Shu bilan birga ijtimoiy tengsizlikni kategoriyalarni keltirib chiqaruvchi omillar haqida M. Veberning g'oyalari va P. Sorokinning ko'p qirrali yondashuvi katta ahamiyatga ega. M.Veber, birinchi navbatda, tabaqalanishning iqtisodiy yondashuvini ko'rib chiqqan o'zining "Iqtisodiyot va jamiyat" asarida kuch va obro'-e'tiborga urg'u bergan. Uning nazarida "bu omillar - mulk, hokimiyat va obro' - bir-biri bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'lib, har qanday jamiyatda bo'linishga asos bo'ladi" [3, B.304], deb hisoblagan.

Boshqa bir faylasuf olim E.Giddensning qarashlarida, "Ijtimoiy tengsizlik muammosiga qarshi ochiq-oydin bir tomondan, yangi jahon iqtisodiyoti iqtisodiy tengsizlikni davom ettirsa, ikkinchi tomondan, kapitalizm qiyoslab bo'lmaydigan darajada dinamik ekanligini ta'kidlaydi.

U zamonaviy dunyoni dinamikasi, noaniqligi tufayli undagi asosiy narsa aniq ijtimoiy o'zgarishlar bo'lishi kerak emas, balki "Mavhum tizimlar" va demokratik hukumatlarga ishonish bo'lishi kerak[3.]. P.Shtompka E.Giddensdan farqli ravishda "Turli mamlakatlarda tengsizlikni keltirib chiqargan global o'zgarishlar jarayonini emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni belgilovchi va tuzuvchi hokimiyat kategoriyasini birinchi o'ringa qo'yadi" [4, B.375-380].

Jamiyat taraqqiyoti kontekstdagi ijtimoiy muammo nafaqat turli tadqiqot yondashuvlari doirasida uning ahamiyatini dolzarblashtirish, balki zamonaviy sharoitda uni amaliy hal qilish uchun mavjud nazariy bilimlarning yetarli emasligini aniqlashtiradi. Demak, ijtimoiy tengsizlikning muammosi – muayyan ijtimoiy taraqqiyot va hozirgi zamon jamiyatidagi ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni sharoitida o'ziga xos (mavjud) bilimlar asosida tengsizlikni muayyan voqelik sifatida tushunish muammosidir.

Demak xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda ijtimoiy adolatning o'rni sifatida ijtimoiy sohadagi islohotlarning samaradorligiga erishish mumkin. Bu esa quyidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga amaliy yordam beradi.

Ya'ni,

- "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish;
- "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimini yanada rivojlantirish;
- kam ta'minlangan oilalarning ehtiyojmandlik darajasini ob'ektiv baholash va sub'ektiv yondashuvlarni bartaraf etish;
- nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha faoliyatni davom ettirish;
- tibbiy yordam darajasi va sifatini oshirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash hamda tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar o'sish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va oldini olish" [1, B.207].

Hozirgi vaqtda jamiyat tuzilmasidagi ijtimoiy tengsizlikni o'rganishda ijtimoiy tabaqalanishga oid qarashlar yondashuvi birinchi o'ringa chiqadi, uning uslubiy asosi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ierarxik tarzda tashkil etilgan makon bo'yicha o'rganish, ijtimoiy jamoalar va qatlamlar mavjud bo'lgandagi moddiy qadriyatlarga egalik darajasi, mulk, daromad, hokimiyat, ijtimoiy tuzilmadagi o'rni va mavqei bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2022. – Б 258.
2. Ролз Д. Теория справедливости. Москва. 2010. С. 442.
3. Вебер М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии. Том. I. «Социология». С. 304.
4. Гидденс, Э. Устроение общества: Очерк теории структуризации. — М.: Академический проект, 2003. — 58 с.
5. Штомпка П. Социология социальных изменений / Пер. с англ. под ред. В.А. Ядова. — М.: Аспект Пресс, 1996. . С. 375-380.